Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 82

ADABIYOT, MADANIYAT VA IJODIY TARJIMA

XX ASR O‘ZBEK VA NEMIS DRAMASIDA DAVR VA QAHRAMON TALQINI

Oybek Zokirjonovich Dadajonov*

Farg’ona davlat universiteti

✉ oybekdadajonov89@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XX asr nemis dramaturgiyasida naturalizm oqimining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda uning badiiy-estetik xususiyatlari to‘g‘risida so‘z boradi. Naturalizmning inson va jamiyat munosabatlarini realistik hamda ilmiy asosda aks ettirishga yo‘naltirilgan tamoyillari nemis dramalari misolida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar

nemis dramaturgiyasi, naturalizm, badiiy-estetik xususiyatlar, realizm, dramaturgiya nazariyasi, inson, jamiyat, adabiy jarayon, sahna san’ati, realistik tasvir

DOI: 10.5281/zenodo.23277991

Kirish.

San’atdagi naturalizmning uzoq tarixiga — Rim davridan to hozirgi zamongacha, ya’ni u ommaviy madaniyatning ajralmas qismiga aylangan davrgacha nazar tashlasak, shuni ko‘rish mumkinki, naturalizm odatda jamiyatni qamrab olgan loqaydlik va ruhiy sustlik eng yuqori darajaga yetgan paytlarda paydo bo‘ladi. D.Kshitsovaning ta’kidlashicha, “Naturalizm” atamasi allaqachon nemis adabiyotida Friedrich Schillerning “Messina kelini” 1803 va Heinrich Heine **“**Salon”, 1831 asarlarida qo’llanilgan, ammo uning zamonaviy ma’nosida birinchi marta Emile Zola “Thérèse Raquin” (1868). romanida ishlatgan”.[1]

Naturalizm (fransuzcha: *naturalisme*; lotincha: *naturalis* – tabiiy) XIX asrning oxirida Yevropa va AQSH adabiyoti va san’atida yuzaga kelgan oqim va ijodiy metod: real borliqni obyektiv, aniq va hissiz aks ettirishga intilgan. Naturalizm tabiiy fanlarda erishilgan muhim muvaffaqiyatlar ta’sirida yuzaga kelgan. Asosiy tasvir ob’yekti – inson, uning tabiiy va fiziologik hayot tarzi; tabiat va atrof muhitni uning maishiy va moddiy muhiti deb bilgan. Bu esa, o‘z navbatida, badiiy imkoniyatlari cheklangan badiiy madaniyat taraqqiyotini ta’minladi. Fan falsafachisi Peter Yanix (1942–2016) *Der Spiegel* jurnalida e’lon qilingan ess-esida **“**naturalizmni tabiatshunoslik fanlariga nisbatan e’tiqodiy munosabat sifatida tavsiflagan edi va, mening fikrimcha, bunda u mutlaqo haq edi. Ammo naturalistlar o‘zlarining “Dunyoda hamma narsa qonun-qoidalarga muvofiq sodir bo‘ladi!” degan shiorini takror va takror ta’kidlashni boshlaganlarida, bu holat bema’nilik darajasiga yetadi.” [2]

Zero, ilgari diniy qarashdagi tabiatshunos olimlar Xudoni aynan shunday tushunganlar: ya’ni u dunyoga tartib baxsh etuvchi, shu orqali tabiatni bilishni umuman mumkin qiladigan mohiyat yoki tamoyil sifatida qaralgan. Shu sababli ayrimlar tabiatning o‘zini ham ilohiy vahiy deb hisoblab, uni o‘rganish lozim, deb bilishgan. **N**aturalizm Germaniyada taxminan 1880–1900-yillar oralig‘ida davom etgan bo‘lib, voqelikni imkon qadar aniq va obyektiv tarzda aks ettirishni maqsad qilgan adabiy oqim hisoblanadi. Naturalizm vakillari real-

izmda uchraydigan voqelikni estetik jihatdan bezab ko‘rsatish uslubini rad etib, uning o‘rniga hayotni va ijtimoiy munosabatlarni ayovsiz hamda bezaksiz holda tasvirlashni ko‘zlaganlar. Bu yo‘nalishda ko‘pincha hayotning soya tomonlari — qashshoqlik, alkogolizm, kasalliklar va ijtimoiy adolatsizliklar — markaziy o‘rinni egallaydi. Naturalizm adabiyoti, ayniqsa, jamiyatning quyi qatlamlari, shuningdek sanoatlashtirish va shaharlashuv (urbanizatsiya) jarayonlarining salbiy oqibatlari bilan chuqur shug‘ullangan.

„Die Kunst soll die Natur nicht nachahmen, sondern ihr den Eindruck der Wirklichkeit abpressen.“ [3]

San’at tabiatni shunchaki taqlid qilmasligi, balki undan voqelikning haqiqiy taassurotini majburan yuzaga chiqarishi lozim.” (Tarjima bizniki – O.D.)

Arno Holz, naturalizmning muhim nazariyotchilaridan biri, ushbu fikr orqali naturalistik san’atning asosiy maqsadini ifodalaydi. U san’at voqelikni ideallashtirmasligi yoki bezamasligi, balki uni barcha qattiqligi va ayovsizligi bilan tasvirlashi lozimligini ta’kidlaydi.

Holzning ushbu iqtibosi naturalistlarning voqelikni imkon qadar realistik tarzda aks ettirish talabi mavjudligini yaqqol namoyon etadi. U “voqelik taassurotini majburan yuzaga chiqarish” iborasi bilan san’at voqelikni to‘liq haqiqiyligi, estetik oshirib ko‘rsatishlarsiz ifodalashi kerakligini nazarda tutadi. Maqsad — dunyoning bezatilgan yoki mavhumlashtirilgan ko‘rinishini yaratish emas, balki ijtimoiy muammolar va individual taqdirlarni buzib ko‘rsatmasdan aks ettiruvchi real “iz”ni berishdan iborat.

Ushbu oqimlarda ijod qilgan nemis dramaturg yozuvchilari Arno Holz (1857–1928), Gerhart Hauptmann (1862–1946), Johannes Schlaf (1862–1941) nemis adabiyotining muhim vakillari hisoblanadilar. Ulardan Gerxardt Hauptman ikki asr oralig‘ida san’at olamida paydo bo‘lgan turli yo‘nalishlarda daxldor, favqulodda ko‘p qirrali ijod sohibi sifatida maydonga chiqdi. Hauptman dastlab naturalizm, so‘ng simvolizm va neoromantizm yo‘nalishlarini o‘tib, oxiri qat’iyan realistik ijod yo‘lini tanlab oladi. Nemis adabiyotida tanqidiy realism shakllana boshladi, naturalism dekantchilik oqimlari muhim o‘rin egalladi, biroq ular adabiyotda ustunlik qilolmadi. Naturalizm adabiyotda inson hayotini, uning muhitini va tabiiy qonunlarni o‘rganishga intiladi. Naturalizm ham realizm kabi konkret hayot voqeligiga tayanadi. Ammo bu ikki adabiy metod o‘rtasidagi jiddiy farq shuki, realizm voqelik va real odam obrazini tipiklashtirib tasvirlasa, naturalizm maksimal darajada individuallashtiradi. Har ikki adabiy metod o‘z poetik tamoyillarini mana shu kategoriyalar ustiga quradi. Yozuvchi “Weber”, „To‘quvchilar“ pyesasida naturalistik fikr qarashlarini izhor etar ekan shunday deydi:

„Der Mensch ist Produkt seiner Umwelt.“ [4]

Inson — o‘z muhitining mahsulidir.” (Tarjima bizniki – O.D.)

Gerhart Hauptmann, nemis naturalizmining eng muhim dramaturgi sifatida, ushbu fikr orqali inson hayotiga ijtimoiy muhit va tashqi sharoitlarning ta’sirini tasvirlaydi. U o‘zining *„To‘quvchilar“* dramasida ishchilarning hayoti ularning iqtisodiy ahvoli va yashash muhiti bilan qanday shakllanishi hamda belgilanishini ko‘rsatib beradi. Ushbu iqtibos naturalizmga xos bo‘lgan deterministik qarashni ifodalaydi, ya’ni insonlar o‘z atrof-muhiti va kelib chiqishi tomonidan kuchli darajada shakllantiriladi, degan e’tiqodni anglatadi. Hauptmannning *„To‘quvchilar“* asari ishchi sinfining og‘ir hayotiy haqiqatini ochib beradi hamda ijtimoiy adolatsizliklar va hukmron sinfning g‘ayriinsoniy munosabatlarini tanqid qiladi. Atrof-muhitni shakllantiruvchi kuch sifatida tasvirlash orqali muallif tashqi omillarning ustuvorligini va shu bilan bog‘liq ravishda individlarning erkinlikdan mahrumligini alohida ta’kidlaydi. Shuni alohida aytib o‘tish kerakki, nemis naturalizmi shakllanishiga fransuz adiblarining ham ta’siri katta edi.

XIX asr oxirida naturalizm umumyevropa miqyosidagi hodisaga aylandi. Ko‘plab Yevropa adabiyotlarida fransuz naturalistlarining estetik izlanishlari katta aks-sado berdi, chunki aynan Fransiyada naturalizm boshqa jahon adabiyotlariga qaraganda oldinroq shakllangan edi. Sababi aynan fransuz yozuvchisi Emil Zola (1840-1902) muayyan dunyoqarashga asosolangan voqelikni badiiy idrok etishning ijodiy usuli va tamoyillari tizimi sifatida naturalizm asoschisi bo‘ldi. Emil Zolya o‘zining “Eksperimental roman” (1880), “naturalist romanchilar”, “Teatrda naturalizm”, “Dramaturglarimiz” (1881) asarlarida Naturalizmni ijodiy metod sifatida asoslab berdi, E.Zolya atrofida naturalistok maktab vujudga keldi (G.Mopassan, P.Aleksis, A.Dode) kabi naturalistic yozuvchilar shular jumlasidandir.

Emil Zola naturalizm oqimiga haqida shunday deydi:

”Ich denke, dass man im Naturalismus versuchte, zu einer wahren mathematischen Druchdringung der

ganzen Handlungsweise eines Menschen zu gelangen und Gestalten vor unserem Auge aufwachsen zu lassen, die logisch sind, wie die Natur.“ [5]

“Naturalizm insonning butun xulq-atvoriga haqiqiy matematik kirib borishga va tabiat kabi mantiqiy bo‘lgan raqamlar bizning ko‘z o‘ngimizda o‘sishiga imkon berishga harakat qildi.” (Tarjima bizniki – O.D.)

Naturalistik unsurlarni biz mif, epos, ertaklar, xalq qissa va hikoyalari, yozma adabiyotga doir barcha janrlarda uchratishimiz mumkin. Ayni holatning yuzaga kelishi bevosita inson tabiati bilan bog‘liq. Qayerdaki ijodkor inson o‘z badiiy obyektini borligicha, tabiiy holatida, aniq va detallashtirib tasvirlashga ehtiyoj sezsa, shu joyda naturalistik unsurlar maydonga kelgan. Bundan keyin ham bu jarayon to‘xtamaydi.

Zolyaning talqinicha, inson va u mansub tarixiy voqelikni naturalistik tasvir etish uchun odamni fiziologik individ o‘laroq tadqiq etish, genetik asoslariga yetib borish muhimdir. Insonning ijtimoiy voqelik doirasidagi faoliyati – xarakteri, dunyoqarashi, psixologik holatlari – uning fiziologik, genetik asosi va holatlari bilan bog‘liq. Naturalizm tabiiylik, amaliy tadqiqotlar va tajribaviylik, voqea-hodisalarga intellektual munosabat tamoyilini ilgari surishi bilan muayyan yutuqlarga erishdi. Mazkur falsafa va adabiyot vositasida odamning fiziologik imkoniyatlari, harakat va holatlariga xos biologik omillar, genetik sabab va oqibatlar kashf etildi. Inson fiziologik holatining sira ham jo‘n emasligi, murakkab bir sistema ekani ma’lum bo‘ldi.

Naturalizm oqimi nemis dramaturgiyasida ko‘p tomondan tanqid ostiga olingan. Masalan Hauptmanning ”Quyosh chiqishidan oldin” pyesasi epik va dramatik qorishma sifatida e’tirof etildi. Naturalistik dramada syujet qisqartirildi, asosiy e’tibor personajlar tasviriga qaratildi. Nemis naturalistik dramaturglar davr talabini hisobga olgan holda asarlarida ijtimoiy masalalarga e’tibor qaratdilar. Ular odamlarning kundalik hayotini, shu jumladan past tabaqa vakillarining turmush tarzini, ularning ruhiy holatlarini aniq tasvirlab berishga harakat qilishdi. Bu davrda asosan hayotning qiyinchiliklari, odamlar o‘rtasidagi ijtimoiy tengsizliklar, mehnat va qashshoqlik kabi mavzular ko‘rib chiqilgan. ”Die Weber” – “To‘qimachilar” dramasida esa ijtimoiy va psixologik aspektlarni chuqur tasvirlab, mehnat sinfining azoblarini va ijtimoiy adolatsizliklarni ochib beradi.

Xulosa qilib aytganda, nemis naturalizmida realizmning kattagina ta’siri bo‘lgan, hayotning tabiiy qonunlarini va insonning instinktiv xatti-harakatlarini ta’kidlashni o‘z ichiga olgan asarlar yaratilgan. Bu davrda ham dramatik yondashuv, ham sahnadagi realizm ko‘p jihatdan yangi bir uslub yaratishga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Дануше Кшицова. Натурализм в драме Л.Н. Толстого ”Власть тьмы”Slavica litteraria. 2010, – С.57.

[2] https://scilogs.spektrum.de/menschen-bilder/was-ist-naturalismus/

[3] https://lernzuflucht.de/deutsch-naturalismus/

[4] https://lernzuflucht.de/deutsch-naturalismus/

[5] https://klassikerforum.de/forum/thread/1032-zitat-zum-naturalismus/